



MING DAVRI ROMANLARINING JANUBIY-SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARIDA O'RGANILISHI MASALASI

Ziyamuxammedov Jasur Toshpo'latovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoy filologiyasi kafedrasida professori, DSc.

Mustafayeva Samida Toshmuxammedovna
Xitoy filologiyasi kafedrasida dotsenti, PhD.
E-mail: mustafaeva.samida@gmail.com

Annotatsiya. Ming davri xitoy adabiyotiga yangi janr - romanchilik janrini olib kirgan davr sanaladi. Aynan shu kezlarda mumtoz xitoy adabiyotining durdona romanlari yaratilgan. Davr asarlari qadimgi xitoy madaniyati, milliy o'ziga xoslik, ijtimoiy hayot hamda siyosiy vaziyat haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sanalishi bilan bir qatorda, adabiy til rivojida yangi bosqichni boshlab bergani bilan ham ahamiyat kasb etadi. Shu bois Ming davri asarlari xitoylik hamda chet ellik tadqiqotchilarining e'tiborini doim tortib kelgan. Davr romanlarining ayniqsa Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari adabiyotiga ta'siri salmoqli bo'lib, asarlar qo'shni mamlakatlar adabiyotining janr, syujet va obrazlari darajasida o'z ta'sirini o'tkazgan.

Kalit so'zlar. Ming davri romanlari, sinosfera, janr, syujet, "Daryo o'zanlari", "Uch shohlik".

Аннотация. Период Мин считается периодом появления в китайской литературе нового жанра — жанра романа. Именно в это время были созданы шедевры классической китайской литературы. Произведения этого периода считаются ценным источником информации о древнекитайской культуре, национальной самобытности, общественной жизни и политической ситуации, а также о том, что они положили начало новому этапу в развитии литературного языка. Поэтому произведения периода Мин всегда привлекали внимание китайских и зарубежных исследователей. Влияние исторических романов на литературу стран Юго-Восточной Азии было особенно значительным, а произведения повлияли на литературу соседних стран на уровне жанра, сюжета и образов.

Ключевые слова. Романы Минского периода, синосфера, жанр, сюжет, «Речные заводы», «Троецарствие».

Annotation. The Ming period is considered the period when a new genre - the genre of the novel appeared in Chinese literature. In that period masterpieces of classical Chinese literature were created. The works of this period are considered a valuable source of information about ancient Chinese culture, national identity, social life and political situation, and that they marked the beginning of a new stage in the development of the literary language. Therefore, works of the Ming period have always attracted the attention of Chinese and foreign researchers. The influence of historical novels on the literature of Southeast Asian countries was particularly significant, and the works influenced the literature of neighboring countries at the level of genre, plot and imagery.

Key words. The Ming period, sinosphere, genre, plot, "Water Margin", "The three Kingdoms".





Xitoyda Ming davri asarlari, xususan, davr romanlari yuzasidan xitoylik olim va tadqiqotchilar tomonidan qator izlanishlar amalga oshirilgan.

Ming davri romanlari nafaqat xitoy adabiyoti, balki Sharqiy Osiyoning boshqa xalqlari adabiyotida ham zalvorli iz qoldirgan. Shu bois ushbu davr romanlarini Sharqiy Osiyo olimlari ham tadqiq etgan. Xitoy madaniyati, adabiyoti va tilining Sharqiy Osiyodagi ta'siri xususida gap borar ekan, avvalo "Sinosfera" yoki "汉字文化圈" ("Culture of Chinese character circle"), ya'ni "Xitoy iyeroglifi madaniyat doirasi" xususida to'xtab o'tish joiz. Qadim Sharqda jug'rofiy joylashuv hamda tarixiy sharoit natijasi o'laroq, "sinosfera", ya'ni "Xitoy iyeroglifi madaniyat doirasi" yuzaga kelgan bo'lib, qariyb ming yillik davr mobaynida xitoy madaniyati yapon madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan[1;368]. Sinosfera tushunchasini fanga tilshunos Djeyms Metisoff kiritgan bo'lib, bu doiraga xitoy (Xan) madaniyati va yozuvi andozasida o'z yozuvini shakllantirgan Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan, Ichki Xitoy (jumladan, Tayvan), Koreya, Yaponiya, Vetnam, ba'zan Singapur va Malayziya ham kiritiladi. Sinosferada boshqa madaniyat doiralaridan farqli ravishda, ieroglifik yozuvning turli shaklidan foydalanilishi mumkin. Mazkur madaniyat doirasi taraqqiyotiga faqatgina Xitoy emas, balki qo'shni mamlakatlar ham o'z hissasini qo'shgan [2]. Xitoyning Sharqiy Osiyodagi ta'siri, jumladan, madaniyat va adabiyot jihatdan Tang imperiyasi (618—907 y.) davrida yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Bu davr adabiyotidagi ta'sir asosan nazmda ko'zga tashlansa, Ming (1368—1644y.) davridagi xitoy adabiyoti ta'siri ko'proq nasrda namoyon bo'ladi. Ming davri romanlarining yapon adabiyotiga ta'siri Yaponiyaning Edo davriga to'g'ri keladi. Yaponiyaning Edo davriga ta'rif berar ekan, akademik I.N.Konrad shunday deydi: siyosiy jihatdan bu davr qat'iy markazlashgan feodalizm asosiga qurilgan, iqtisodiy jihatdan har jabhaga singgan o'ziga xos umumdavlat savdo kapitalizmi qurshovidagi rejali xo'jalikka asoslangan davr hisoblansa, madaniy jihatdan turli xildagi uch omil ta'siri: xitoy ma'rifati, milliy o'yg'onish va shahar aholisining keng qamrovli faolligi harkatlari davridir. Fuqarolik dunyosining deyarli buzilmagan ikki uzun (qariyb ikki asrdan oshiqroq davr) yo'li har uchala omilning boy va jadal taraqqiyotini ta'minladi [3; 282-283].





Ming davri prozasining yapon Edo davri prozasiga ta'siri haqida so'z borganda ta'kidlash joizki, Ming romanchiligi namunasi sanalgan 《水浒传》 “Daryo o‘zanlari” romanining o‘rni beqiyos[4;70]. Xitoydan adabiyot namunalarining Sharqqa tomon olib chiqilishi va Edo davri jamiyatdagi madaniy taraqqiyot birga odimlay boshladi[5; 35]. 《水浒传》 (“Daryo o‘zanlari”) kabi bayxua (sodda xalq tili)da yozilgan romanlar mutolasi uchun yapon ziyolilari orasida bayxuan o‘rganish ommalashib ketdi. Aynan shunday ziyoli qatlamning mehnati samarasi o‘laroq 《水浒传》 (“Daryo o‘zanlari”) romanining 和刻本 *hé kèběn*、初译本 *chū yìběn*、注释书 *zhùshì shū* lari bir ketin chiqa boshladi[6; 197]. 和刻本 *hé kèběn* deb asosan xitoy manbalarining izohlar qo‘shilgan holatda Yaponiyada nashr qilingan nusxalariga aytilgan bo‘lsa, 初译本 *chū yìběn* deb xitoy iyerogliflari va katakana alifbosida yozilgan tarjima asarlarga nisbatan aytilgan. 注释书 *zhùshì shū* tarjima izohli kitoblar sanalib, “Daryo o‘zanlari”ning bunday izohlari asosan asarni tushuntirganda ustozlarining izohini yozib borgan shogirdlar tomonidan to‘planib, kitob shakliga keltirilgan. Yaponiyada XVI-XIX asrlar davomida mazkur asarning tarjima va izohlari 14 turdan ortiq ma‘lumotlarda keltirilgan [6; 197].

《水浒传》 (“Daryo o‘zanlari”) roman deb atalishga munosib ilk asar hisoblanadi. Asardagi badiiy san‘at, mazmundagi g‘ayriodatiylik, qahramonlik, xarakter chizgilarining jonli tasvirlanishi, syujetdagi uzviylik yapon xalqi orasida o‘sha davrda asarning nihoyatda ommalashishi sabablaridan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘sha davr yapon jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy muhit va asarda tasvirlangan ijtimoiy-siyosiy muhit bilan yaqinligi kutubxonlar qalbiga chuqur kirib borishiga sabab bo‘ldi.

Xitoy Ming davri romanlarining yapon adabiyotiga kirib borishi hamda ta'sir masalalari bir necha ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan bo‘lib, Van Szyunven [1; 368] “Yapon Edo davri mutolaa romanlari va qadimgi xitoy romanchiligi” mavzuidagi tadqiqotida qadimgi xitoy va yapon adabiyotining o‘zaro aloqalari, Edo davrigacha xitoy mumtoz asarlarining yapon adabiyotiga ta'siri, xitoy Ming romanlari, xususan, “Daryo o‘zanlari” romani mutolaasining yapon Edo davri ilk va so‘nggi bosqichlari adabiyotiga qanday va qay darajada ta'sir ko‘rsatgani, Ming davri romanchiligi namunasi sanalgan “Daryo o‘zanlari” romanining ta'sirida yapon Edo davri





adabiyotida qadimgi proza namunalaridan zamonaviy roman janri sari yuz bergan taraqqiyot masalalari batafsil va chuqur o'rganilgan hamda tahlil etilgan bo'lsa, Fen Ya [6; 197] tomonidan yozilgan "Daryo o'zanlari" romanining yoyilishi (ommalashishi)ning tadqiqi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasi bevosita "Daryo o'zanlari" romanining Yaponiyaga kirib borishi, o'sha davr yapon jamiyati, Edo davrida romanning keng miqyosda ommalashuvi, mazkur roman asosida yapon ijodkorlari tomonidan yaratilgan asarlar tahlilini o'z ichiga olgan. Chen Anmey [7; 162-166]ning "Daryo o'zanlari"ning Yaponiyada ommalashishi" nomli maqolasi asarning Yaponiyaga kirib borishi, Yaponiyada nashr qilingan nusxalari va tarjimalari tahliliga bag'ishlangan. Chjao Myao [8; 92-98]ning "Daryo o'zanlari" va Edo davrida Yaponiya" deb nomlangan maqolasi asarning Yaponiyaga kirib borishi, Edo davrida Xitoy va Yaponiya munosabatlari, Edo davri va "Daryo o'zanlari", asarning Yaponiyada ommalishi sabablarini yoritib bergan. Xitoy tili tarixiy leksikasi borasida tadqiqot olib borgan yapon olimi Kosaka Dzyun'itining 《白话语汇研究》 ("Xitoy bayxua tili leksikasi tadqiqi"), 《水浒词汇研究·虚词部分》 ("Daryo o'zanlari" romani leksikasi tadqiqi (yordamchi so'zlar)) asarlarida xitoy bayxua tiliga oid leksikaning semantik va funksional xususiyatlari hamda bevosita "Daryo o'zanlari" romanida yordamchi so'zlarni tasniflagan holda funksional xususiyatlari, taraqqiyot dinamikasi tahlil etilgan [9; 458].

Ming davri romanlarining koreys adabiyotiga ta'siri ham salmoqli bo'lgan. Xususan, U.T. Saydazimova XVII-XVIII asrlar koreys nasriga bag'ishlangan tadqiqotida o'rta asrlar koreys nasriga xos ma'naviy estetik xususiyatlar asoslari *xyo* 孝 hurmat, *xan* 顺 itoatkorlik konsepsiyalariga tegishliligini ta'kidlangan [10; 3]. Bu esa ayni xitoy konfutsiychilik g'oyalaridan 孝顺 *xiaoshun* bo'lib, bunda 孝 *xiao* kattalar, yoshi ulug'lar, oila boshisini hurmat qilish hamda 顺 *shun* itoat qilish, ergashish ma'nolarini anglatadi. Bu esa xitoy ijtimoiy munosabatlarning negizida turgan g'oyalardan sanalgan. Tadqiqotda xanmun, xitoy ierogliflarining koreyslashtirilgan shakli deya e'tirof etiladi hamda quyidagi ta'rif keltiriladi: u (xanmun) o'rta asrlarda Koreyadagi rasmiy yozma adabiy til hisoblangan. VI-VII asrlarda xitoy ierogliflari asosida yaratilgan "idu" (amaldor yozuvi) va XV asrda





koreys fonetik alifbosi yaratilganiga qaramasdan, xanmun mil.avv. I asrdan 1984 yilga qadar davlat boshqaruvida, bilim va madaniyat sohasida yozma munosabat vositasi bo'lgan. O'rta asr koreys ilmiy adabiyoti va badiiy adabiyotining barchasi xanmun (xanmunxak)da yaratilgan. Xitoy mumtoz adabiyotidagi ko'plab janrlar, syujetlar, an'anaviy obrazlar va badiiy tasvir vositalari tizimi xanmunda ijod qilgan koreys adiblari tomonidan qabul qilingan va qayta shakllangan[10; 24]. Bu esa xitoy yozuvining koreys adabiyotiga ta'sir qilgan asosiy omil bo'lgani yana bir karra isbotlaydi.

Xitoy yozuvi vositasida adabiyotning qo'shni adabiyotlarga ta'siri asarlar, ularning janr va mavzu xususiyatlarida ham ko'zga tashlanadi. Xususan, "...adolatli utopik mamlakat qurgan "Xon Kil Don haqida qissa" asarining qahramoni Robin Gudni yodga soladi, shuningdek, XIV asrda yashagan xitoy yozuvchisi Shi Nayanning "Daryo o'zanlari" romani qahramoniga ham o'xshab ketadi" [10; 30]. O'rta asr koreys nasri qahramoniga Robin Guddan ko'ra xitoy Min davri romani 《水浒传》 ("Daryo o'zanlari") ning ta'siri bo'lgani mantiqiy asosli.

Shuningdek, ishda XVII asr koreys adabiyotida katta hajmli asar – roman janrining taraqqiyotini boshlab bergani qayd etilgan[10; 31]. Bu ham katta ehtimol bilan Ming davrida xitoy adabiyotida romanchilikning yuzaga kelishi va takomiliga bog'liq hodisa bo'lgan.

XVII asrda xanmunda yaratilgan tarixiy *chok* (biografiya) uslubida yozilgan, to'qima syujetlarga asoslangan asarlar paydo bo'ldi. Jumladan, pxesol asarlarining aksariyat qismi tarixnavislik yo'nalishida vujudga kelgan bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida (XVIII asr boshlarigacha) tarixiy voqealarni yoritish xususiyatini saqlab qolgan. Ko'plab pxesollar real tarixiy shaxslar va voqealar asosiga qurilgan [37]. Qayd etilgan xususiyatlar Ming davri romanlari 《水浒传》 ("Daryo o'zanlari") hamda 《三国演义》 ("Uch shohlik") romanlariga xosdir. Umuman, Xitoy Ming davri adabiyotining koreys adabiyotiga ta'siri janr, syujet, g'oyaviy xususiyatlarida yaqqol aks etadi. Bu ta'sir masalasi qator olimlar, xususan, D.D. Yeliseev, A.F. Trotsevich, U.T. Saydazimova [10, 11, 12, 13]larning ishlarida e'tirof etilgan.

Umuman, xitoy Ming davri adabiyoti xitoy adabiyoti tarixida Tang, Sung sulolari davri adabiyotlaridan kam bo'lmagan darajada chuqur iz qoldirgan bo'lib,





jamiyat, siyosatda kechgan o'zgarishlar aynan Ming davri birinchi yarmiga oid yirik xajmdagi prozaik asarlarda ayniqsa, yaqqol aks etgan. Davr yodgorliklari nafaqat xitoy adabiyoti, balki xitoy yozuvi vositasida Xitoyga qo'shni mamlakatlar adabiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ushbu ta'sir g'oya, obrazlar, syujet darajasida bo'libgina qolmasdan yapon va koreys adabiyoti kabi Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida o'z o'rniga ega bo'lgan adabiy maktablarda yangi janrni shakllantirishga sabab bo'lish darajasida sezilarli kechkan. Adabiyotshunoslikda ushbu o'zaro ta'sir masalasi xitoy, yapon, koreys, rus, o'zbek olimlari tomonidan muayyan darajada o'rganilgan bo'lsada, masala yanada chuqur izlanishlarni talab etib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1. 汪俊文.日本江戸时代读本小说与中国古代小说. 博士论文.上海, 1999年. 368页. [Wang Junwen. Reading (book) novels of Edo period of Japan and classic Chinese novels. PhD dissertation. Shanghai, 1999. 368p.]
2. <https://ru.wikipedia.org>
3. Конрад Н. Очерки Японской литературы. –М.: Художественная литература, 1973. –С.282–283.
4. 刘炯浩. 从多元系统理论看江湖时期文学系统的更迭—以中国白话小说《水浒传》的译介传播为线索. 硕士论文. 北京, 2018. 70页. [Liu Donghao. The Change of Literary System in the Edo Period from the Perspective of Multi-system Theory—Taking the Translation of Chinese Vernacular Novel "Water Margin" as a source. Master's diss. Beijing, 2018. 70p.]
5. 严绍盪. 汉籍东传与文化的对话. 中国典籍与文化. 2012/1, 第35页. [Yan Shaodong. Spread of Han literacy and culture dialogue// Classic literacy and culture of China. 2012/1, p.35]
6. 冯雅. 《水浒传》在日本的传播研究. 博士论文. 东北师范大学, 2017. 197页. [Feng Ya. A study of the Diffusion of Water Margin in Japan. PhD diss. North west university, 2017. 197 p.]
7. 陈安梅. 《水浒传》在日本的传播.//海外汉学. 2014/08. 第162-166页. [Chen Anmei. Diffusion of Water Margin in Japan//Haiwai hanxue. 2014/08. P. 162-166.]
8. 赵苗. 《水浒传》与江户日本[Zhao Miao. Water Margin and Edo period's Japan]// China academic journal. 2015. P.92-98.
9. 香坂顺一.白话语汇研究. –北京: 中华书局出版社, 1997. 445页; 水浒词汇研究·虚词部分. –北京: 文津出版社, 1992. 458页.





10. Сайдазимова У.Т. XVII-XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. ...Дис. филол.ф.д. –Тошкент, 2018. –Б.3.
11. Елисеев Д.Д. Корейская средневековая литература пхэсоль (некоторые проблемы происхождения жанра). –М.: Наука, 1968. 134с. ;
12. Троцевич А.Ф. Корейский средневековый роман. –М.: Наука, 1986. 198с.
13. Елисеев Д.Д. Новелла корейского средневековья (эволюция жанра). –М.: Наука, 1977. 256с.

